

KICHIK BIZNES SUB'EKTALARIDA BALIQ YETISHTIRISHGA IXTISOSLASHGAN XO'JALIKLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

*Vazirov Azamat Yoqubjonovich,
Ipoteka bank ATIB Namangan viloyat filiali Xodim.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada karpsimon baliqlar etishtirishga ixtisoslashgan to‘la tizimlixo‘jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish masalalari yoritilgan. To‘la tizimlihovuz baliqchiligi xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisob obyektlari vamoddalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, Kichik biznes sub’ektalarida baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil etishning ahamiyati o‘rganildi.

Kalit so‘zlar. intensiv, tabiiy norma, tadbirkor, ovlangan baliq, iste’mol, tabiiy suv havza, sun’iy suv havza.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы учета производственных затрат в хозяйствах полной системы, специализирующихся на выращивании карповой рыбы. Разработан аналитический учет производственных затрат при комплексном прудовом рыбном хозяйстве. Также изучена важность создания на базе субъектов малого предпринимательства фермерских хозяйств, специализирующихся на разведении рыбы.

Ключевые слова. интенсивный, природная норма, предприниматель, выловленная рыба, потребление, природный водоем, искусственный водоем.

Abstract. This article covers the issues of accounting for production costs in full system farms specializing in the cultivation of carp fish. Analytical accounts of production costs in full system pond fisheries have been developed. Also, the importance of establishing farms specializing in fish breeding in small business entities was studied.

Key words. intensive, natural norm, entrepreneur, caught fish, consumption, natural water body, artificial water body.

KIRISH

O‘zbekiston agrar sohasini barqaror tizimli rivojlanishiga erishilishi uchun uning barcha tarmoqlarida izchil islohotlar olib borilishi lozim va olib borilmoqda. Ana shunday serdaromad sohalardan biri - bu baliqchilikdir. Baliq - inson uchun muhim ozuqa hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kichik biznes sub’ektalarida tashkil etilgan baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarga baliq mahsulotlari yetishtirishning yuqori samarali sohasi va yetishtirilayotgan baliq mahsulotlari hajmining ko‘paytirish manbai, aholiga qo‘srimcha daromad ishlab

topish uchun hamda qishloq joylarida aholining kambag‘allik darajasining qisqarish uchun imkoniyat deb alohida etibor qaratilmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi O‘zbekistonda aqli qishloq xo‘jaligini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlashyili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini bajarilishida 2021-yil 20-martgacha "Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida go‘sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish" tadbiri rejalashtirilgan. Buni amalga oshirish uchun 6 trln. So‘m mablag‘ ajratilgan edi. Chora-tadbirlar dasturidan kutilayotgan natija esa, 2021 yilda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirishga qaratilgan 1500 ta yangi loyihalarni ishga tushirish nazarda tutiladi. Baliq go‘shti yuqori biologik qiymatga ega bo‘lib, parhez xususiyati afzalliklariga ega bo‘lganligi uchun insonlar hayotida yaxshi oziqa hisoblanadi. Shuning uchun baliq mahsulotlarini inson iste’mol qilishi uchun tibbiy normalar belgilangan. Bu tibbiy normalar O‘zbekiston sharoitida har xil yoshidan, holatidan kelib chiqib 9 kg dan 25 kg gacha qilib belgilangan. O‘rtacha hozirgi kunda tibbiy normasi O‘zbekistonda 11 kg hisoblanadi. Ushbu tibbiy normani ta’minlash maqsadida Respublikamizda oxirgi yillarda baliqchilikni rivojlantirish uchun bir qancha qarorlar qabul qilingan bo‘lib, bu borada O‘zbekistonda baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin oshishiga sabab bo‘ldi. Xususan, 2020-yil 14-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish" bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida respublikamizda intensiv usulda baliq yetishtirishni rivojlantirish holati past darajadaligi, joriy yilda baliq ishlab chiqarish hajmini 350 ming tonnaga yetkazish bo‘yicha keng ko‘llamli chora-tadbirlar amalga oshirish borasida ko‘rsatmalar berildi edi va bugungi kunda sezilarli natijalarga erishildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznes iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganligi sababli kichik biznesning afzalliklari va ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

u nisbatan arzon pul sarflab, yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi;

moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini samarali taqsimlashga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatadi;

jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kafolatlaydi, tadbirkorlar qatlamin yaratadi va iqtisodiy faol aholi ulushini oshiradi;

qisqa muddatda yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga kiritib, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga zamin yaratadi;

sog'lom raqobat muhitini yaratadi va iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi;

Iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirish orqali byudjetga soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi. Kichik biznes aholi o'rtasida mehnat va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, bozor munosabatlariga moslashuvchanlik darajasini oshirishning doimiy va samarali vositasi sifatida fuqarolarga nafaqat o'z mehnat resurslariga, balki mulkka, jumladan, ishlab chiqarishga ham egalik qilish imkonini beradi, o'rta sinf - asos yaratadigan jamiyatning progressiv ijtimoiy qatlaming yuzaga kelishiga negiz yaratadi.

Baliqchilik — xalq xo'jaligining suv havzalarida baliq zaxirasini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug'ullanuvchi sohasi; baliq o'stirish tadbirlari (baliqni sun'iy usulda ko'paytirish va uni yangi sharoitga o'rgatish, yangi zot baliqlar yetishtirish, suv havzalarining meliorativ holatini yaxshilash)ning biologik asoslarini va asosiy baliq o'stirish jarayonlari (voyaga yetgan baliqlarni ovlash, baliq tuxumini ochirish, baliq boqish va boshqalar)ning biotexnikasini ishlab chiquvchi fan. Baliqchiliktabiiy suv havzalari baliqchiliga va sun'iy hovuz baliqchiliga bo'linadi. Baliqchilikda suv havzalarining meliorativ holati yaxshilanadi, baliq sun'iy urchitiladi, baliqpar tuxum qo'yadigan va yosh baliqchalar o'sadigan joylarda tegishli sharoit yaratiladi; baliqlarning tuxum qo'yadigan joylari tozalanadi, daryo to'g'onlariga baliq yo'li yasaladi, sun'iy tuxum qo'yish joylari tayyorlanadi. Tabiiy suv havzalarida baliqlarni sun'iy urchitish, ovlanadigan baliqlar miqdorini ko'paytirish yoki ularni yangi zot baliqlar bilan almashtirish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun maxsus baliq zavodlari quriladi. Baliq o'stirish maqsadida suv omborlaridan foydalanish, boshqa zot baliqlarni mazkur joyga olib kelib iqlimlashtirish ham Baliqchilikning asosiy vazifasidir. Buning uchun suv omborlari baliq ovlashga xalaqit beradigan buta va maxsus o'tlardan tozalanadi, yosh baliqchalarni ko'paytirish uchun baliqchilik pitomnigi quriladi. Baliqlar maxsus hovuzlarda ham o'stiriladi. Bunday hovuzlarda baliqni urchitish, boqishdan tortib uni iste'mol qilinadigan darajaga yetkazguncha bo'lgan jarayonlar amalga oshiriladi. O'zbekistonning daryo va ko'llarida 106 turdag'i baliqlar mavjud (zog'ora baliq, do'ngpeshona, sudak, okcha, tobonbaliq, ilonbosh, cho'rtan, laqqa baliq, qizilko'z va boshqalar). O'zbekistonda Baliqchilikni sanoat asosida rivojlantirish 1937-yildan boshlangan. O'sha yili Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida "Toshkent baliq chavoqlari xo'jaligi" tashkil etildi. Keyinchalik bu xo'jalik baliq chavoqlarini baliq xo'jaliklari va tabiiy suv havzalari uchun ham yetkazib bera boshladi. 1946-yil O'zbekiston xalq xo'jaligi Kengashi huzurida Baliqchilik xo'jaligi bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1946-yildan Toshkent viloyatining Zangiota tumanida baliq yetishtirishga mo'ljallangan Damachi hovuz baliqchilik xo'jaligi tashkil etildi va ishga tushirildi.

Baliqchilik tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Keyingi vaqtarda ko'rileyotgan chora-tadbirlar tufayli mamlakat iqtisodiyotining tarkibida baliqchilik ulushi izchil ortib bormoqda.

Shu bilan birga, baliqchilik tarmog'ida hanuzgacha ko'plab kamchilik va muammolar saqlanib qolmoqda, ularni samarali hal etish ishchanlik faolligini oshirish, investitsiyalarni jalg'etish, baliq yetishtirish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinalarini yaratish imkonini beradi.

Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar va ishlanmalar sifatini oshirish, ularning natijalarini amaliyatga keng joriy etish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Xususiy lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Toshkent viloyati hokimligi va "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasining Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani hokimligiga sud qarori bilan berilgan mol-mulk va yer uchastkalari, shu jumladan, suv havzalari negizida "Baliq ishlab chiqaruvchi" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Quyidagilar "Baliq ishlab chiqaruvchi" EIZning asosiy vazifalari etib belgilansin:

ishlab chiqarish, sun'iy suv havzalarini baliqlantirishni yanada rivojlantirish va baliqchilik xo'jaliklarini ta'minlash uchun baliqning yangi va sinalgan turlarini iqlimlashtirish orqali naslli baliq chavoqlarini yaratish;

nasldor baliq lichinkalari yetishtiruvchi zamonaviy inkubatsion sex faoliyatini tashkil etish, baliq chavoqlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, mavjud baliq chavoqlarini yetishtiruvchi suv havzalarini modernizatsiya qilish va qayta ta'mirlash;

o'z ehtiyoji va baliqchilik xo'jaliklarini uchun to'la qiymatli va yuqori oqsilli ozuqalarini ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy quvvatlarni yaratish orqali ozuqa bazasini mustahkamlash, don va don ekinlarini ekish yo'li bilan bug'doy va soyaga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondirish;

innovatsion va zamonaviy intensiv texnologiyalarni keng joriy qilish, shu jumladan qafas (sadok) usulida, yopiq suv aylanma tizimi qurilmalarida baliq yetishtirish hamda sun'iy suv havzalari hosildorligini oshirish hisobiga baliq ovlash hajmlarini ko'paytirish;

birinchi navbatda, aholi ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, keyinchalik qo'shni mamlakatlarga eksport qilish uchun baliqlarni qayta ishlash va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish (konserva, ikra, baliq uni va boshqalar) bo'yicha zamonaviy komplekslarni tashkil etish;

svuning gidrokimyoviy tarkibini laboratoriya usulida tahlil qilish, baliqlarni kasalliklardan himoya qilish, shuningdek, baliq kasalliklarini aniqlash, ularni davolash choralarini ko‘rish;

baliq yetishtirish, ovlash va qayta ishlash jarayonida innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek, mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oluvchi ta’lim muassasalari talabalari uchun baliqchilik tarmog‘ida amaliyat o‘tashni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi Toshkent viloyati hokimligi va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda bir oy muddatda “Baliq ishlab chiqaruvchi” EIZ tarkibidagi yer uchastkalarining chegaralarini aniq belgilasin.

“Baliq ishlab chiqaruvchi” EIZning faoliyat ko‘rsatish muddati keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi;

faoliyat ko‘rsatish muddati mobaynida “Baliq ishlab chiqaruvchi” EIZ hududida alohida soliq va bojxona rejimlari amal qiladi.¹

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kichik biznes sub’ektlarida baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil etish 2022-yil davomida baliqchilikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonda bir qator yangi loyihamalar ishga tushirildi. Xitoy, Vietnam, Turkiya, Rossiya, Germaniya, Vengriya kabi davlatlar tajribalari asosida respublika miqyosida jami qiymati 1.1 trillion so‘m bo‘lgan 289 ta loyihamalar joriy etildi. 3 250 ta yangi ish o‘rinnari yaratildi. Bu haqda "O‘zbekbaliqsanoati" uyushmasi raisi o‘rinbosari Maqsud Ostonov ma’lumot berdi.

Qayd etilishicha, kichik biznes sub’ektlarida baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil etish zamonaviy intensiv kichik havzalar, yopiq suv aylanma tizimi va qafas moslamalarida baliq yetishtirish texnologiyalarini joriy etish orqali intensivlashtirish ishlari jadal ravishda olib borildi.

Xususan, baliq lichinka va chavoqlarini yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi “Super baliqlar”, Navoiy viloyatidagi “Goldin layk fish”, Toshkent viloyatidagi “TST fish klaster” mas’uliyati cheklangan jamiyatlari kabi xo‘jaliklarda bir nechta yangi loyihamalar ishga tushirildi.

Kichik biznes sub’ektlarida baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil etish shuningdek, Xatirchida “Youkang Fish Breed”, Yangiyo‘lda “Fish haus”, Popda “Namangan baliq” hamda “Buloqli marinka baliqlari”, Oltiariqdagi “Farg‘onabaliq sanoat agro”, Sharof Rashidov tumanidagi “Gold fish agro eksport”, “Nodirxon fish farm” kabi baliqchilik xo‘jaliklarida intensivlashtirish ishlari amalga oshirildi.

¹ PQ-3657-соҳ 06.04.2018. Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Yetishtirilayotgan qimmatbaho sovuq suv baliqlari hajmini ko‘paytirish maqsadida, quvvati 100 tonna bo‘lgan "Milafshona", quvvati 200 tonna bo‘lgan "Qandil parvozi fayz", quvvati 400 tonna bo‘lgan "Sharq balig‘i" hamda "Uchqo‘rg‘on forel" baliqchilik xo‘jaliklari tomonidan yangi quvvatlar ishga tushirildi. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar Toshkent, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo hamda Farg‘ona viloyatlarida jadallik bilan rivojlantirilib borilmoqda.

Baliq mahsulotlarini qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida, quvvati 4,4 ming tonna bo‘lgan 7 ta baliqni qayta ishlash hamda quvvati 63,5 ming tonna bo‘lgan 5 ta omuxta yem ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Shu bilan birga, aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish ishlari ham hududlardagi hokimiyatlar hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda tashkil etilmoqda. O‘tgan yillar mobaynida respublika bo‘yicha 2 ming 600 ta xonadonlarda intensiv usulda baliq yetishtirish ishlari yo‘lga qo‘yildi.²

Bugungi kunda Ulug‘nor, Andijon, Xatirchi, Karmana, Qiziltepa, Uchqo‘rg‘on, Bo‘stonliq, O‘rtachirchiq, Yangiyo‘l, Xiva hamda Qo‘shko‘pir tumanlari kichik biznes sub’ektlarida baliq yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil etish sohasida eng rivojlangan hududlar sirasiga kiradi.

"Joriy yilda ham aholi dasturxoniga arzon va sifatli baliq va baliq mahsulotlarini yetkazib berish maqsadida yangi loyihalarni ishga tushirish davom ettirilmoqda"

Shuningdek O‘zbekistonda hozirgi payt foydalanim kelinayotgan hovuzlarda baliq o‘stirish tizimi sharoitni boshqarishning uncha yuqori bo‘limgan darajasi bilan xarakterlanadi (bir qator rivojlangan mamlakatlar tizimi bilan taqqoslanganda). Eng yaxshi baliqchilik xo‘jaliklarida baliqchi quyidagi ishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega:

- tubi yaxshi tekislangan maydoni birmuncha katta bo‘lgan hovuzlarni to‘ldirishni boshqarish;
- hovuzlarga o‘stiriladigan, suniy usulda olingan baliq turlarini o‘tkazish (garchi bunday baliqlar ro‘yxati juda kam bo‘lsada: oq do‘ngpeshona, karp, ba’zan oq amur va chipor do‘ngpeshona);
- xashaki baliq va boshqa organizmlarni yo‘qotish elementlaridan foydalanish;
- tabiiy ozuqa bazasining rivojlanishini (ko‘pincha plankton) rag‘batlantirish;
- baliqlarni qo‘srimcha oziqlantirish tizimlarini ishlab chiqish;
- baliqchilik sohasini rivojlantirish maqsadida baliq mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar yaratish;³

XULOSA

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-maydagi "Chorvachilik tarmog‘iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 280-sod Qarori

³ Shepherd C. J., Niall R. Bromage. "Intensive Fish Farming", Wiley-Blackwell. 2017, 420 pages.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki O‘zbekiston Respublikasida 2015-yil ovlangan baliqlar miqdori 59851.5(tonna), 2023-yilga kelib 171933.1(tonna)ga oshgan. 2023-yilga kelib ovlangan baliq miqdori qariyb 3 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu yillar oralig‘ida eng yaxshi natijalarga Xorazm, Andijon, Samarqand viloyatlari ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil 6- son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4576-son qarori, <https://lex.uz/docs/4717189>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-maydag‘i "Chorvachilik tarmog‘iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 280-son Qarori, <https://lex.uz/docs/4810009>
4. Qaxramonov B.A., Mullaboyev N.R. Intensiv usulda baliq yetishtirish. -T.: 2021, 96 betMay 12-13Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University Theoretical and practical foundations of introducing smart agriculture in Uzbekistan O‘zbekistonda aqli qishloq xojaligini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari
5. Shepherd C. J., Niall R. Bromage. "Intensive Fish Farming", Wiley-Blackwell. 2017, 420 pages.
6. Niyoziy I.N. Baliqlarni oziqlantirish, Toshkent. 2011 yil.
7. Комлацкий В. И., Комлацкий Г. В., Величко В. А. "Рыбоводство", Учебник, Санкт-Петербург, 2020, 200 с.
8. Привезенцев Ю. А., Власов В. А. "Рыбоводство", Учебник для вузов, Россия, Издательство «Мир», 2004, 234 с.